

**SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING EKOLOGIK MELIORATIV HOLATINI
YAXSHILASH UCHUN OLIB BORILADIGAN MELIORATSIYA ISHLARI**

Janibek qizi Diyana

Toshkent davlat agrar universiteti, assistenti

Annotatsiya: Qishloq xo'jalikda ishlab chiqarishni izchillik bilan jadallash- tirish yer fondidan oqilona foydalanish , sug'oriladigan har bir gektar xosidorligini, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolar yechimini ishlab chiqish g'oyat katta ahamiyat kashfetadi. Bu borada tuproq unumdorligini saqlash , uni yil sayin muntazam oshirib borish, qishloq xo'jaligi va eng avvalo tuproq melioratsiyasi mutaxassislari zimmasidagi muhim vazif alardan xisoblanadi. Respublikada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni melioratsiyalashga benihoyat katta e'tibor qaratilgan bo'lib, yerlarni loyihalash , meliorativ tizimlarni qurish va foydalanish hamda meliorativ tadbirlar o'tkazish ga davlatning katta mablag'lari ajratilgan.

Kalit so'zlar: unumdorlik, yerlarning samardorligini oshirish, yerlarni melioratsiyalash, meliorativ tadbirlar, sho'rlangan yerlar, sho'rlangan yerlarni yaxshilash.

Аннотация: Чрезвычайно важно выработать решение проблем, связанных с последовательным ускорением производства в сельском хозяйстве, рациональным использованием земельного фонда, продуктивностью каждого орошаемого гектара, повышением его экономической эффективности. В связи с этим поддержание плодородия почвы и регулярное его повышение из года в год считается одной из важных задач сельского хозяйства и, в первую очередь, мелиораторов. В республике большое внимание уделяется мелиорации земель, используемых в сельском хозяйстве, выделяются большие государственные средства на проектирование земель, строительство и использование мелиоративных систем, проведение мелиоративных мероприятий.

Ключевые слова: продуктивность, повышение продуктивности земель, мелиорация, мелиоративные мероприятия, засоленные земли, улучшение засоленных земель.

Bugungi kunda dunyo bo'yicha 833 mln gektar ya'ni yer shari quruqlik qismining 8,7% maydoni turli darajada sho'rlanishga uchragan, global karta ma'lumotlari bo'yicha sho'rlangan yerlarning asosiy qismi Aziya, Afrika va Lotin Amerikasi hududlarida joylashgan, ushbu kartadagi ko'rsatgichlar bo'yicha barcha sug'oriladigan yerlarning 20% dan 50% gacha bo'lgan hududlari ortiqcha tuz to'planishi bilan harakterlanib 1,5 milliardgacha bo'lgan aholi ushbu yerlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda bu esa mavjud yer maydonlaridan oqilona foydalanishni, sug'oriladigan yerlar sho'rlanishining oldini olish, sho'rlangan maydonlarni tubdan yaxshilash va ulardan ham samarali

foydalanish yo'llarini ishlab chiqishni taqazo etadi. Shu sababli hozirgi kunda tuproqlar sho'rlanishining oldini olish, ulardan samarali va maqsadli foydalanish, yer maydonlari ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligi yerlari tuproqlarini ishlab chiqarish qobiliyatini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan chora - tadbirlarni ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Dunyo bo'yicha tuproqlarning sho'rlanishi, sahrolanishi, ifloslanishi, eroziyalanishi va boshqa da degradatsiya jarayonlariga uchrashi va bu jarayonlarning xalq xo'jaligiga etkazayotgan zararini baholash, ularni oldini olish va salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tuproqlar sho'rlanishining mexanizmi, sabablari, tarqalishi, sho'rlanish-sho'rsizlanish jarayonlarining qonuniyatlari hamda bu jarayonlarning hosil bo'lishini aniqlash, tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, tuproqlar degradatsiyalanishi jarayonlarini bashorat qilishda hamda uni yumshartishda ilg'or texnologiyalardan foydalangani holda yangi resurs tejankor va noan'anaviy usullarni qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlarni, maqsadli tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda tuproqlarida sodir bo'layotgan sho'rlanish jarayonlari va ularni melioratsiyalash, tuproqlarning inqirozining oldini olish, ularning ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish va tuproq mahsuldorligini boshqarish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda hamda muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoni bilan tastitqlangan «2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»ning uchinchi «Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash» yo'nalishida bir qator vazifalar, jumladan tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish. Ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xom ashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish, yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSH dollariga oshirish bo'yicha tizimli chora tadbirlarni amalga oshirish birinchi navbatdagi vazifalar etib belgilab berilgan. Shuning uchun ham respublikamiz yer fondlaridan samarali foydalanish, unumdorligi va mahsuldorligini oshirish, degradatsiyaga uchragan tuproqlar ekologik-meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim axamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda yerlarni melioratsiyalash ning asosiy vazifalari - tuproq sho'rlanishi va botqoqlanishini oldini olish va bu jarayonlarga qarshi kurashish , quruq yerlarni o'zlashtirish, suv va shamol eroziyasiga

qarshi kurashish , yerlarni rekultivatsiyalash , tuproqning zichlanishi va gumus miqdorining kamayishini (degumifikatiya) oldini olish , tuproq ifloslanishi va saxrolanishiga va boshqa salbiy jarayonlarga qarshi kurashish bosh maqsad xisoblanadi. Meliorativ tadbirlar tizimlari xar xil tabiiy sharoitdagi mintaqalar uchun turlicha bo'lib, bu tadbirlarni ishlab chiqish tuproqlarning paydo bo'lishi (ge nezisi) va ularning xossalari tog'risidagi chuqur bilimga ega bo'lishni taqozo etadi.

«Meliorativ rejim» tushunchasi 1966 yilda N.M.Reshetkina tomonidan kiritildi. Bu rejim hududning tabiiy shart-sharoitlarini va tuproq hosil bo'lish jarayonlarini hisobga olgan holda gidrotexnik tadbirlar majmuasini amalga oshirish orqali hosil qilinadi.

D.M.Kats (1976) tushunchasi bo'yicha maqbul meliorativ rejim deyilganda, yerlarning tabiiy zovurlanishidan yoki tabiiy omillar, sug'orish va zax qochirish ishlarining o'zaro ta'siridan yerlarda barqaror maqbul meliorativ holatni ta'minlaydigan sizot suvlari, tuproq, suv va tuz rejimlari tushuniladi.

U uch (3) meliorativ rejim tushunchasini kiritdi:

- 1) avtomorf-sizot suvlari 5 m dan chuqurlikda joylashganda;
- 2) yarim avtomorf- sizot suvlari 3-5 m chuqurlikda bo'lganda;
- 3) gidromorf - sizot suvlari 2-3 m chuqurlikda bo'lganda.

Meliorativ rejimlar kam xarajat sarflab, qishloq xo'jalik ekinlaridan maksimal hosil yetishtirishni ta'minlaydigan gidromeliortiv, agrotexnik, agrokimyoviy va boshqa tadbirlarning majmuasidan tashkil topadi.

Tuproqda ularning suv rejimiga bog'liq bo'ladigan jarayonlarga asoslanib, tuproqshunoslar tuproq hosil bo'lishining ushbu turlarini aniqladi: avtomorf, yarimavtomorf, gidromorf va yarimgidromorf.

Tuproq hosil bo'lish jarayoniga ta'sir etuvchi meliortiv tadbirlar (sug'orish, sho'r yuvish va drenaj) grunt suvlari va boshqa tuproqlarning suv-tuz rejimlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Arid zonlardagi sug'oriladigan yerlarda tuproqqa keladigan asosiy suv manbalari: sug'orishga berilgan suv, yog'ingarchilik va grunt suvlari hisoblanadi.

N.M.Reshetkina fikriga ko'ra sug'oriladigan yerlarda 4 xil meliorativ rejim shakllanishi mumkin: gidromorfli, yarimgidromorfli, avtomorfli va yarimavtomorfli.

Gidromorfli rejim grunt suvlari yer yuzasiga doimo yaqin joylashgan sharoitda shakllanadi va tuproq hosil bo'lishida tuproqning kapillyar kuchi bilan ko'tarilgan suv tuproq hosil bo'lish jarayonida faol qatnashadi.

Tabiiy sharoitda gidromorfli rejim daryolarning terassalari, qirg'oqlarida va dengiz deltasida, shuningdek yer osti suvlari bosimli va yer yuzasiga yaqin joylashgan tog'oldi qiyaliklarida tashkil topadi.

Zovur-drenajlar bilan kam ta'minlangan yerlarda gidromorfli tuproqlarda tuz rejimi ijobiy (musbat) bo'lib, yerlarning sho'rlanishiga olib keladi. Zovur-drenajlar bilan yaxshi ta'minlanagan, chuchuk grunt suvlari mavjud bo'lgan yerlarda mahsuldor o'tloqi tuproqlar hosil bo'ladi.

Yerlarning tabiiy drenajlanishi past bo'lgan cho'l va yarimcho'l zonalarida qishloq xo'jalik ekinlarining yaxshi rivojlanishini ta'minlaydigan gidromorfli rejimni faqat yaxshi ishlaydigan sun'iy drenaj bilangina shakllantirish mumkin.

O'zbekistonning sug'oriladigan, shuningdek, o'zlashtirilishi kerak bo'lgan yerlar orasida tuprog'i ma'lum darajada sho'rtoblanib qolgan yerlar uchrab turadi. Ular mexanik tarkibiga ko'ra turlicha: soz, qumoq, birinchi va ikkinchi metrli qatlamlarida qum va qumoq holda bo'ladi. Sho'rtoblangan tuproqlarni yaxshilash va hosildor qilish uchun tuproqning singdiruvchi kompleksidagi ortiqcha natriyni siqib chiqarib, kalsiyga almashtirish, fizik xossasini yaxshilash zarur. Tuproqning sho'rtoblanish darajasiga ko'ra ularning o'zlashtirish va yaxshilashda agrotexnik, biologik, kimyoviy usullardan foydalaniladi. Sho'rtobli tuproqlarni kalsiy zaxiralari xisobiga ham o'zlashtirish mumkin. Sho'rtobli qatlam tagidagi gipsli qatlamlar yuza joylashgan yerlardagina shunday qilish mumkin. Sho'rlangan tuproqlar gipslash natijasida fizik-kimyxo xossalari yaxshilanadi. Keyinchalik sho'r yuvish jarayonida suvda oson eriydigan tuzlar, shu jumladan, natriy sulfat tuproqlardan chiqib ketadi. Gips natriyning kalsiy bilan almashishiga ta'sir qiladi va tuproq sog'lomlashadi, fizik xossalari yaxshilanadi. Ushbu tuproqlarga maxalliy va mineral o'g'itlar solish, almashlab ekishni joriy qilish ularning unumdorligini tiklash va oshirishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Xamidov, Sh.Botirov, A.Hamidov "Melioratsiya va yerlarni rekultivatsiyalash" Darslik 2021
- 2.S.A.Nizamov, X.T. Risqieva, M.M. Mirsodiqov. Nishon tumani sug'oriladigan tuproqlarining ekologik holatiga qo'rg'oshin elementining ta'siri // Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. Xiva, 2022, - №5/1. – B. 80-83.
3. S.A.Nizamov, X.T. Risqieva, J.M. Qo'ziev, M.M. Mirsodiqov. Qo'ng'iro't tumani sug'oriladigan tuproqlarida og'ir metallarning to'planishi // Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 // B. 625-629
- 4.Nizamov S.A., Risqieva X.T., Umarov M.I., Qo'ziev J.M., Mirsodiqov M.M., Eshtemiro v B.H., Abduxalilova F.G'. Yangiyo'l tumani sug'oriladigan tuproqlarining agrokimyoviy va ekologik holati // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси 3(9/2) 2023 // B. 625-629
- 5.E. B. Dedov Sho'rlangan yerlarida uning agrofitotsenozini moslashtirishda sho'rlangan bug'doy o'tining fitomeliorativ mexanizmlarining ta'siri / /. Quyi Volga agrouniversitet majmuasi yangiliklari: fan va oliy kasb-hunar ta'limi.– Volgograd, 2012. 124- 132b.
6. Elmurodov A.B., Azizov Q.Q., Boboyev F.G. Ozuqabop yem-hashak ekinlari. "Respublikada chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Chorvachilik va

parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti Respublika ilmiy-amalaiy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent 2019 yil. 286-288 betlar.